

NASLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING YO'NALISHLARI

Mirzamaxmud Mirzakarimov

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Respublikamiz chorvachiligida qoramolchilik muhim o'rinni egallaydi. Bu tarmoqni ilmiy asosda rivojlantirish, urchitilayotgan qoramol zotlarining mahsuldorlik, nasl, pushtdorlik, texnologik xususiyatlarini takomillashtirish, ularning yangi sermahsul liniyalarini, oilalarini, tiplarini, podalarini yaratish muhim vazifalar bo'lib hisoblanadi. Bunday muhim vazifani amalga oshirishda naslchilik podalari tarmog'ini kengaytirish, sun'iy qochirishni keng qo'llash, podalarda tanlash va juftlash ishlarini maqsadli olib borish, sermahsul sigirlarning seleksiya podalarini yaratish, sof zotli urchitishdan keng foydalanish, jahon genofondiga xos qarindosh zotlarning nasldor buqalari urug'idan foydalanish, ozuqa bazasini mustahkamlash, mollarni to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa fermer va dehqon xo'jaliklarida qoramollarning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, ularni to'la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, yiliga har bir bosh sigirdan bir boshdan buzoq olish, sun'iy urug'lantirish usulidan keng foydalanish, buzoqlarni maqsadga muvofiq o'stirishni tashqil etish va qoramol zotlarining mahsuldorlik salohiyatidan to'liq foydalanishni taqozo etadi

Kalit so'zlar: chorvachilik, qoramolchilik, naslchilik, seleksiya, sermahsul sigirlar, iqtisodiy samaradorlik, tannarx, foyda, rentabellik, intensiv usul

Mamlakatimiz iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda, qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan chorvachilik tarmoqlarida seleksiya-naslchilik ishlarini dunyodagi ilg'or tajribalar hamda zamonaviy texnologiyalar va ilmfan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, butun chorvachilik tarmog'ini iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'sib borayotgan mamlakatimiz aholisining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, ichki iste'mol bozorlarda go'sht, sut, tuxum, asal va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko'paytirish hamda ularning narxlari barqarorligini doimiy ta'minlash eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlari yalpi ulushining 44 foizi chorvachilik tarmoqlari mahsulotlari hisobiga to'g'ri kelishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda, respublikamiz chorvachiligida qoramolchilik muhim o'rinni egallaydi. Aynan shu tarmoqdan ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning asosiy ulushi yetishtiriladi. Shu tufayli ham bu tarmoqni ilmiy asosda rivojlantirish, urchitilayotgan qoramol

zotlarining mahsuldorlik, nasl, pushtdorlik, texnologik xususiyatlarini takomillashtirish, ularning yangi sermahsul liniyalarini, oilalarini, tiplarini, podalarini yaratish muhim vazifalar bo'lib hisoblanadi. Bunday muhim vazifani amalga oshirishda naslchilik podalari tarmog'ini kengaytirish, sun'iy qochirishni keng qo'llash, podalarda tanlash va juftlash ishlarini maqsadli olib borish, sermahsul sigirlarning seleksiya podalarini yaratish, sof zotli urchitishdan keng foydalanish, jahon genofondiga xos qarindosh zotlarning nasldor buqalari urug'idan foydalanish, ozuqa bazasini mustahkamlash, mollarni to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa fermer va dehqon xo'jaliklarida qoramollarning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, ularni to'la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, yiliga har bir bosh sigirdan bir boshdan buzoq olish, sun'iy urug'lantirish usulidan keng foydalanish, buzoqlarni maqsadga muvofiq o'stirishni tashkil etish va qoramol zotlarining mahsuldorlik salohiyatidan to'liq foydalanishni taqozo etadi.

Dastlab tashkil topgan naslchilik fermer xo'jaliklarida yer maydonlari hajmining kichikligi yangi nasl yaratishda bir qator muammolar vujudga kelganligi rentabelligining o'sishiga va barqaror foyda olishga to'sqinlik qildi. Shu va bir qator boshqa omillarni inobatga olgan holda, hukumatimiz tomonidan naslchilik fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish yer maydonlarini normativlar asosida maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli va amaliy ishlar olib borildi. *Asrlar davomida chorvachilik sohasi O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. iqtisodiyotning o'tish davrida ko'plab tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi kamayib odamlarning qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari cheklangan murakkab yillarda ushbu soha qishloq joylarda aholi farovonligi darajasini barqaror saqlab turishga salmoqli hissa qo'shdi. Chorvachilik qishloq aholisi uchun oziq-ovqat va daromad olishning muhim manbaiga aylandi. Bozor iqsosodiyoti mexanizmlari faollashib, oziq-ovqatga talab ortib borayotgan ushbu kunda mazkur soha samaradorligini va raqobatdoshligini yanada oshirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.* Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish ob'ektiv zaruratga aylandi.

Chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida:

Aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohada oziq-

ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni tizimli yo'lga qo'yish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi choralarni ko'rish;

Chorvachilik sohasida infratuzilma xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularning sifatini yaxshilash va turlarini kengaytirish, ushbu sohaga zamonaviy bozor tamoyillarini keng joriy etish;

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ini modernizatsiya qilish, sohani diversifikatsiya qilish va qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya hamda xorijiy kapital oqimini ko'paytirish, shuningdek, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

Chorvachilik xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymatni yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish samaradorligini oshirish;

Chorvachilik va uning tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarini kengaytirish bilan integratsiyalashgan va ma'lumotlarni tarqatishning samarador shakllarini joriy etish hisobidan ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini takomillashtirish, ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

Respublika aholisining oziq-ovqat bilan muntazam ta'minlab borishda qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalari, baliq va asalarilarini ko'paytirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash, chorva mollari va parrandalarni xilma-xil vitaminli ozuqalar bilan yil mobaynida uzluksiz ta'minlab turish chorvachilikning asosiy sharti hisoblanadi. Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishning muhim omillaridan yana biri ularni ixtisoslashtirish, yiriklashtirish va markazlashtirish hamda jadallashtirishdan iborat. Buning uchun mustahkam va barqaror yem-xashak bazasini yaratish, yem-xashakdan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, ularning to'yimlilikini oshirish va sifatini yaxshilash, ayniqsa, tarkibidagi oqsil miqdorini ko'paytirish, sun'iy usulda vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotiklar va o'stiruvchi moddalar ishlab chiqarish talab qilinadi. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishda omixta yem, donador va briket oziq tayyorlash ishlari muhim ahamiyatga ega.

Biz bilamizki, har qanday sohaning rivojlanishi ko'proq narsalarni yaratish bilan bog'liq va bu biz yangi usullar va vositalardan foydalanganimizda, ishni boshqacha tashkil qilganimizda va mavjud narsalardan yaxshiroq foydalanganimizda sodir bo'ladi. shuningdek, mehnatni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanish

natijasida mavjud resurslardan samarali va to'liq foydalanish hamda mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi.

Chorva hayvonlarini ko'paytirishning yangi usullarini ishlab chiqishda ba'zi omillarni hisobga olish kerak. Bularga quyidagilar kiradi: a) ishlab chiqarish uchun tabiat va ob-havoga tayanish; b) o'simlik va hayvonlar kabi tirik mavjudotlardan, shuningdek yerdan foydalanish; c) yangi usullarni boshqarish haqida yetarlicha tushunchaga ega emasligi; d) boshqa sohalarga nisbatan bu sohada muammolar va pul yo'qotish ehtimoli ko'proq. Chorvachilikni qanday yaxshilash mumkinligini o'rganar ekanmiz, yangi usullar va texnologiyalardan foydalanish sanoatni yanada samaraliroq qilishini angladik. Bu ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning yangi usullaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni anglatadi.

Chorvachilikni takomillashtirishda qo'llaniladigan samaradorlik ko'rsatkichlari murakkab. Sohada kuzatilgan natijalarga ko'ra samaradorlikning turli turlari mavjud: texnik-texnologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik.

Biz chorvachilik sohasida erishilgan natijalarni ko'rib chiqish va ularni sarflangan xarajatlar bilan solishtirish orqali rivojlanish chora-tadbirlarini tashkil qilamiz. Chorvachilikda mahsuldorlikning muhim jihatlaridan biri biologik samaradorlikdir. Bu chorva hayvonlari kamroq ozuqa ishlatib, ko'proq mahsulot ishlab chiqarish qanchalik samarali ekanligini anglatadi. Yangi faoliyatning samaradorligi chorva mollari qancha ko'p yetishtirilgani va resurslardan qanchalik kam foydalanilganligi bilan o'lchanadi.

Texnik-texnologik samaradorlik chorvachilikda texnologiyani takomillashtirishga sarflangan mablag'ga nisbatan qancha mahsulot olishingizni aniqlash demakdir. Chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish respublikadagi mehnat taqsimotini bevosita yaxshilashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. B.Z.Nosirov, Peculiarities of formation and development of the regional food market (on example of Andijan region. Abstract of the diss. for PhD. T.: SISM, 2004.
2. Юрий Наумов, Игорь Пугач. Проблемы и перспективы развития животноводства в Узбекистане. Discussion paper. 2019. #188. Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO).
3. Ю.Б.Юсупов. Ц.Лерман, А.С.Чертовицкий, О.М.Акбаров. Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва тараққиёт истиқболлари. Аграр секторни ривожлантириш тенденциялари нуқтаи назаридан таҳлил.. БМТ Тараққиёт дастури, Ўзбекистон Тошкент 2010.
4. B.Nosirov, M.Mirzakarimov. Features of development of milk production in Uzbekistan. The scientific heritage. No 91 (2022) p.32-35. ISSN 9215-0365. DOI: 10.5281/zenodo.6695687.
5. B.Nosirov. Some problems of development of livestock industry. Science and education in agriculture. Volume 1, Issue 2. 2022. <https://www.seagc.andqxai.uz>

6. Nosirov B. Z., Ergashev A. A., Islamova D. T. Development prospects of food markets in Andijan province // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2020. №1 (1). URL: <https://theoria.apni.ru/article/17-development-prospects-of-food-markets>
7. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rahmonova. Properties and potential of walnut growing in Uzbekistan. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Volume 6, Issue 5, Page No. 140-146. ISSN : 2581-4230, <https://journalnx.com/papers/20150963-potential-of-walnut.pdf>
8. B.Nosirov, B.Rahmonova, D.Islamova, Sh.Yoqubov The role of increasing the economic efficiency of potato production in food supply of the population of Uzbekistan. Journal of Xi'an University of Architecture & Technology. Volume XIII, Issue 5, 2021. P. 560-567. ISSN: 1006-7930. <https://www.xajzkjdx.cn/gallery/58-may2021.pdf>
9. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. <http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf>
10. B.Nosirov, Sh.Tulakov. Opportunities to increase land efficiency in farming. Innovative Technologica: Methodical Research Journal (IT). ISSN: 2776-0987. Volume 2, Issue 5, May, 2021. 175-179. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/84>
11. B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva. Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>
12. B.Nosirov. Features of development of livestock industry in the field of food security. Sustainable agriculture. 3(15).2022. p.17-20. <http://sa.tiiame.uz/en/page/arxiv>
13. B.Nosirov. Basis for the development of the regional food market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 1(11), 2021. p.65-71.
14. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. <http://sa.tiiame.uz/en/page/arxiv>
15. B.Nosirov, A.Raximov. Development of wholesale food markets.American Journal of Science and Learning for Development. Volume 2, No 1. Jan-2023. P. 47-50. ISSN: 2835-2157. <http://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/article/view/898>
16. B.Nosirov, D.Fakhriddinova . Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy. Journal of New Century Innovations. Volume 23, No 2. February-2023. P. 19-24. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3748/3539>
17. B.Nosirov, A.Abdurashidov. Development of elements of food markets.Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 4, Issue 3, 2023. P. 881-886. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3544/3398>